

## O'ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O'RNI, CHEGARALARI VA TABIATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Malikova Go'zal

Buxoro Davlat Pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar  
Fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi

### Annotatsiya:

O'zbekiston Yevrosiyo materigining markaziy qismida joylashgan ichki kontinental davlat hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasining geografik o'rni, uning chegaralari hamda mamlakat tabiatining o'ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** geografik o'rin, chegara, quruq kontinental, berk havza, tabiat, qurg'oqchil, tekislik, tog'lik.

### Аннотация:

Узбекистан – внутриконтинентальная страна, расположенная в центральной части Евразийского континента. В данной статье представлены краткие сведения о географическом положении Республики Узбекистан, ее границах, особенностях природы страны.

**Ключевые слова:** географическое положение, граница, сухой материк, замкнутый бассейн, природа, аридный, равнинный, горный.

### Abstract:

Uzbekistan is an internal continental country located in the central part of the Eurasian continent. This article provides brief information about the geographical location of the Republic of Uzbekistan, its borders, and specific features of the country's nature.

**Keywords:** geographical location, border, dry continental, closed basin, nature, arid, plain, mountainous

O'zbekiston Yevrosiyo materigi tarkibidagi Markaziy Osiyo davlatlaridan biridir. O'zbekistonning taxminiy geografik koordinatalari  $41,5^{\circ}$  shimoliy kenglik va  $64,5^{\circ}$  sharqiy uzoqlikda joylashgan. O'zbekiston Respublikasi Yevrosiyo qit'asining  $37^{\circ}$  va  $45^{\circ}$  shimoliy kenglik,  $56^{\circ}$  va  $73^{\circ}$  sharqiy tekislikda joylashgan. O'rta Osiyoning markaziy qismida, asosan, Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoli sharqida bo'lib,  $45^{\circ} 36'$  shimoliy kenglikdadir. Eng janubiy nuqtasi Termiz shahri yonida, Amudaryo qirg'og'ida bo'lib,  $37^{\circ} 11'$  shimoliy kenglikda. Eng g'arbiy nuqtasi Ustyurt platosida bo'lib,  $56^{\circ} 00'$  sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa Farg'ona vodiysining sharqiy qismida,  $73^{\circ} 10'$  sharqiy uzoqlikda. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan janubiy nuqtasi orasidagi masofa 925 km ga, eng g'arbiy nuqtasi bilan sharqiy nuqtasi orasidagi masofa esa 1400 km ga teng.

O'zbekiston geografik o'rniga ko'ra O'rta dengiz bo'yidagi Ispaniya, Italiya, Gretsiya kabi mamlakatlar bilan taxminan bir geografik kenglikda joylashgan. Lekin O'zbekiston Yevrosiyo materigining ichki qismida okean va dengizlardan uzoqda joylashganligi tufayli subtropik okrugdan farq qiladi. Buning ustiga Hind okeanidan kirib keladigan nam va iliq havo oqimlarini tog'lar to'sib turadi. Aksincha, shimoliy qismi ochiq bo'lganligi tufayli sovuq havo oqimi bemalol kirib keladi. Natijada, O'zbekiston subtropik mintaqada joylashsa-da, cho'lga xos bo'lgan tabiiy sharoit (yozi bulutsiz, serquyosh, jazirama issiq va quruq, qishi esa nisbatan sovuq) vujudga keladi. O'zbekistonning sharqiy va janubi-sharqiy hududlari Tyanshan va Pomir kabi tog' tizmalari bilan ajralib turadi. Bu hududlar tabiat go'zalligiga boy bo'lib, turli o'simlik va hayvonot dunyosiga ega. Tog'lar, shuningdek, mamlakatning qishloq xo'jaligi va gidroenergetika tizimlarini qo'llab-quvvatlovchi muhim daryolarni o'z ichiga oladi. Cho'llar O'zbekistonning deyarli 80% maydoni cho'l bilan qoplangan, ayniqsa Qizilqum cho'li mamlakatning shimoliy va g'arbiy hududlarini egallaydi. Bu qurg'oqchil iqlim yuksak haroratlar va sovuq qishlar bilan ajralib turadi. O'zbekistonning eng katta daryolari Amudaryo va Sirdaryo hisoblanadi. Ushbu daryolar tarixan irrigatsiya uchun muhim bo'lgan, ammo qishloq xo'jaligida, ayniqsa paxta ekinlarini ekishda ortiqcha suv ishlatilishi natijasida ekologik muammolar, xususan, Orol dengizining kamayishi kuzatilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda ko'plab sun'iy ko'llar va suv havzalari mavjud. O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rniga qaraydigan bo'lsak, qadimda mamlakat Buyuk Ipak Yo'li kesishgan nuqtasida joylashgan va bu esa mamlakatni tarixan

Sharq va G'arb o'rtasidagi muhim savdo va madaniy markaziga aylantirgan. O'zbekiston materik markazida bo'lsada, dunyo okeaniga chiqishi hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda quyidagi mumkin bo'lgan yo'nalishlari mavjud:

- Qozo'g'iston orqali Rossiya Federatsiyasining Shimoliy Muz okeani va Tonch okeani portlariga;

- Turkamaniston va Kavkaz orqali Qora dengiz va O'rta dengiz-Atlantika okeniga;

- Afg'oniston, Pokiston yoki Eron orqali Hind okeaniga;

- Qirg'iziston va Xitoy Xalq Respublikasi orqali Tinch okeaniga.

O'zbekistonning siyosiy geografik o'rniga qe'tibir bersak, beshta mamlakat bilan chegaradoshdir. O'zbekistonning quruqlikda joylashganligi unga dengizga chiqish yo'lini bermaydi, ammo chegaralar mamlakatning Markaziy Osiyo hududidagi madaniy, siyosiy va ekologik o'zaro aloqalarini yaratadi. O'zbekistonning umumiy chegarasi 6221 kilometrdan ortiqni tashkil qiladi, bu xususiyat uni dunyodagi yirik 60 talik davlat ro'yxatiga kirgizadi. Mamlakat shimolda va g'arbda Qozog'iston (chegara uzunligi: 2203 km), sharqda Qirg'iziston (1069 km), janubi-sharqda Tojikiston (1161 km), janubi-g'arbda Turkmaniston (1721 km) va janubda Afg'oniston (137 km) bilan chegaradosh. Eng uzun chegara Qozog'iston davlati bilan bo'lib, davlat umumiy chegarasining 1/3 qismi to'g'ri keladi O'zbekistonning umumiy maydoni taxminan 448 900 kvadrat kilometrni tashkil etadi. Shundan 78.8% ini tekisliklar, 21.2% ini tog'liklar va tog'oldi hududlarni o'z ichiga oladi.

**O'zbekiston iqlimi** — keskin kontinental iqlim. Hududining deyarli 5/4 qismi yarimcho'l va cho'lliklarni, qolgan qismi janubiy-sharqiy va sharqiy xududlarda baland tog'liklardan iborat. O'zbekistonda kontinental iqlimning paydo bo'lishida uning geografik o'rni, quyosh radiatsiyasi hamda atmosfera sirkulatsiyasi ta'sir etadi. O'zbekiston mo'tadil mintaqada joylashganligi uchun 4ta fasl aniq namoyon bo'ladi. Asosan uzoq qurg'oqchilik, issiq yoz, yomg'irli bahor va kuz va noustivor qishni tashkil etadi. Mamlakat hududiga turli havo oqimlarining kirib kelishi uchun juda oson hudud hisoblanadi. Shimol, shimoliy-g'arb va g'arbiy tarafdin atlantika va arktika havo oqimlari kirib keladi. Respublikada iyul oyining o'rtacha havo harorati shimolda 26 °C dan janubga 30 °C gacha o'zgaradi. Yanvar oyining o'rtacha harorati shimolda -8 °C gacha, janubda esa 0 °C gacha yetadi. Eng past havo harorat Ustyurtda -38 °C ni tashkil etadi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning geografik joylashuvi va tabiiy resurslari mamlakatni Markaziy Osiyoning muhim qismi sifatida belgilaydi. Cho'llar, tog'lar, daryolar barchasi

o'ziga xos ekologik tizimlarni yaratib, mamlakatning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, tabiiy muhitning o'zgarishi va ekologik muammolarni hal etish, mamlakatning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.P. Baratov. " O'zbekiston tabiiy geografiyasi" Toshkent, "O'qituvchi" 1996-y.
- 2.I.A.Hasanov, P. N. G'ulomov, A.A.Qayumov. O'zbekiston tabiiy geografiyasi 2-qism Toshkent-2009-y
3. A. Soliyev. O'zbekiston geografiyasi. Toshkent "Universitet" 2014-y

